

**“NAVABIG‘U-L-KALIM” DA AKS, SAJ’ VA IZDIVOJ
LAFZIY SAN’ATLARI****Bakirov Begzod,***O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola Mahmud Zamaxshariyning “Navabig‘u-l-kalim” asarida qo‘llangan aks, saj’ va izdivoj san’atlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ushbu badiiy san’atlarning turlari misollar bilan batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aks, saj’, al-muhassinotu-l-lafziyya, al-muhassinotu-l-ma’noviyya, izdivoj, mutarraf, murassa’, mutavoziy.

Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariy “Navabig‘u-l-kalim” asarida badiiy san’atlardan ba’zi turlarini qay tarzda qo‘llangani misollar yordamida ko‘rib chiqdik.

Aks العكس – gapni shunday holatda tuzishki, avvalgi so‘zlarni oxiriga qo‘yib o‘qilishi bilan gap chiroyli eshitiladi.

Misol: قول الإمام إمام القول *Rahbarning so‘zi so‘zlarning rahbaridir.* Jumlaning oxiri birinchisi bilan tugadi. “Navabig‘-ul-kalim” asarida ham aks lafziy san’ati qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz:

شراك شراك , وإن أردت الشراك : NK, 7

Ma’nosi: Oyoq kiyim bog‘ichi yoki ipni xohlasang ham sotish olishni o‘zinga lozim tut! Gapning boshidagi so‘zi gap oxirida takror bo‘lib kelmoqda.

“Navabig‘u-l-kalim” asarida qo‘llangan aks san’atiga misollar:

NK: الرحمنُ ماعنده حرمان

أمنَ الحرمان ، من سأل الرحمن

Matndagi الرحمن so‘zi gap oxirida yana qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

NK: أعز الناس يبلى من الخطوب بالأعز، كأن العزاء أخت الأعز:

Bu jumlada esa أعز so‘zi ham gap boshida, ham oxirida kelgan.

Saj’¹ (السجع) – shoirona, qofiyali gapirish ma’nosida bo‘lib, jumla bo‘laklarining oxirini bitta harfga moslab keltirishdir. Bo‘laklarni qarina deyiladi, chunki u bir bo‘lakni boshqasiga yaqinlashtiradi. Uni, misra yoki xatboshi ma’nosida, “fiqra” الفقرة

¹ سَجَع (saj’) so‘zi arabcha سَجَع (g‘uv-g‘uvlamoq (kaptarlarga nisbatan); qofiyali nasrda yozmoq)

fe‘lining masdaridir. Sakkokiy saj’ga, nasrda xuddi she‘rdagi qofiya kabi bo‘ladi, deb ta’rif bergan.

ham deyiladi². Uch xil turi bor:

- A) المطرّف mutarraf (oxiriga qo'yilgan);
- B) المرصع murassa' (o'rnatilgan, bezatilgan);
- V) المتوازي mutavoziy (mos, parallel qilingan).

«Saj'-i mutavoziy ohangdosh raviydosh lafzdoshlikdan iborat», ya'ni saj' hosil qilayotgan so'zlar ham vaznda, ham tovushlarda o'zaro mutanosiblikka ega bo'ladi.

Balog'at ilmida saj'ning hosil bo'lishi uchun aynan tovushlar mutanosibligi zarur shart ekani hisobga olinib, badi' ilmining lafziy san'atlari qatorida o'rganiladi. Chunki saj'da so'zning tovush jihati e'tiborga olinadi, ma'nosi esa saj' san'ati hosil qilishda ishtirok etmaydi, ammo ayni vaqtda ma'no e'tiboriga ko'ra hosil bo'luvchi tavriya, tiboq, muqobala, husnu-t-ta'lil va boshqa san'atlardan biri yoki bir yo'la bir nechtasining hosil bo'lishida qatnashadi.

Masalan, tadqiqotimiz ob'yekti bo'lgan "Navobig'u-l-kalim" dan olingan misoldagi «ashraf»-«ar'af» so'zlari kabi:

NK: الأَبُّ أَعْرَفٌ وَ أَشْرَفٌ وَ الأُمُّ أَرَأَمٌ وَ أَرَأْفٌ

Tarjimasi: Ota (farzandiga onaga nisbatan) muruvvatli va himmatli, ona (otaga nisbatan) mehr-muhabbatlidir.

«Saj'-i mutarraf nobo'g'indosh raviydosh lafzdoshlikdan iborat, ya'ni so'zlar vaznda va tovushlar sonida farq qiladi, lekin oxirgi harflari o'zaro mos bo'ladi». Bunga ham "Navabig'u-l-kalim" dagi «mamhud»-«fahud» so'zlar misol bo'la oladi:

NK, 17: وَ نَأْسٌ لَهُمْ مَمْنَجَعٌ مِنَ الْعَفْلَةِ مَمْهُودٌ وَ يَفَلٌّ فِي أَجْفَانِهِمُ السُّهُودُ كَأَنَّهُمْ فُهُودٌ

Tarjimasi: Bir toifa odamlar bor, ularning to'shaklari g'aflat beshiklariga obdon belangandir. Ularning qovoqlarida (ko'zlarida ma'nosida kelmoqda) bedorlik oz (kam) bo'ladiki, bamisoli qoplonlar singari.

Yuqoridagi gapda esa fُهُودٌ ("mam'hūdun"), السُّهُودُ ("suhūdun"), فَهُودٌ ("fahūdun") so'zlari jinos (الجناس) lafziy san'atining yaqqol namunasidir. Bu lafziy san'atlarning saj' turiga ham oiddir. Saj' lafziy san'atda keltirilgan so'zlarning birliklari quyidagichadir.

- 1) فَهُودٌ "fah'dun" – qoplon
- 2) سُهُودٌ "suh'dun" – uyqusizlik, uyqu kelmaslik
- 3) مَهْدٌ "mah'dun" – beshik

«Saj'-i mutavozin yangroqdosh ohangdosh lafzdoshlikdan iborat, ya'ni saj' hosil qilayotgan so'zlar vaznda mutanosib, lekin tovushda farqli bo'ladi».³

NK, 3: الْمَرْءُ يَفْدِمُ ثُمَّ يُحْجِمُ وَ النَّوْءُ يُنْجِمُ ثُمَّ يُنْجِمُ

² Abdulmutal So'iydiy. Bug'yatul Iydoh li talxis al-miftah fi ulum al-balog'a. Qohira. Maktabatul adab 2005. -B. 653.

³ سعد الدين التفتازاني. المرجع السابق. ص. 6

Tarjimasi: Er kishi goh olg‘a bosar, goh orqaga chekinar, Mashriqdan chiqib Mag‘ribga botadigan tong va oqshom yulduzlari (an-Nav‘) ham goh yomg‘ir yog‘dirib, goh uni to‘xtatadi-ku!

أحجم fe‘li lug‘at kitoblarda 1) bosh tortmoq, o‘zini tiymoq, tonmoq 2) jo‘namoq, chekinmoq ma‘nolarida keladi. نوء so‘zi esa shtorm, bo‘ron, dovul; yomg‘ir ma‘nolarida keladi. Gapdagi ikki juftlik تَمَّ يُنْجِمُ va يَفْقِدُ تَمَّ يُحْجِمُ ham lafziy san‘atlarga oid bo‘lgan sajga tegishlidir. Bizningcha bu yerda quyidagi hikmatli so‘zlar qasd qilingan. Haqiqiy mard, er kishi biror bir gunoh ishga qadam qo‘ysa, o‘zini tiya oladi. Yomg‘ir kichik tomchilardan iborat bo‘lsa-da, ular jamlanib ko‘payadi, ko‘zga ko‘rinadigan bo‘ladi. Bu xuddi ona tilimizdagi quyidagi maqolga hamohangdir:

Toma toma ko‘l bo‘lur;

Tommay qolsa cho‘l bo‘lur.

Mutarraf – vazn jihatda ikki bo‘lakning oxiri turlicha bo‘lishidir:

إِنَّكَ أَقْرَبُ قَرِيبٍ وَ أَجْوَبَ مُجِيبٍ NK, 3:

Tarjimasi: Albatta sen yaqinlarning eng yaqinisan va (duolarni) eng ko‘p ijobat etuvchisan.

قَرِيبٍ va مُجِيبٍ so‘zlaridan ularning ismi tafzil, ya‘ni sifatning orttirma darajalari qo‘llangan va ular ham o‘z navbatida saj‘ san‘atini hosil qilib, go‘zal qofiyaga sabab bo‘lgan. Bu jumlaning Ubaydullo Uvatov ustozimiz “(Payg‘ambarga murojaat). Bizdan ko‘ra sen Allohga yaqinisan va duolarga eng ko‘p ijobat etguvchisan!” deb tarjima qilganlar. Bizningcha Mahmud Zamaxshariy bu yerda Qur‘oni karimdagi 50-suraning (Qof surasi) 16-oyati وَلَقَدْ خَلَقْنَا الْإِنْسَانَ وَنَعَلْمَا ثُؤَسُوسًا بِهِ نَفْسُهُ وَنَحْنُ أَقْرَبُ إِلَيْهِ مِنْ حَبْلِ الْوَرِيدِ (Qof surasi) 16-oyati *“Albatta, insonni Biz yaratganmiz va uning nafsi nimani vasvasa qilishini ham bilurmiz. Va biz unga jon tomiridan ham yaqinmiz”* ma‘nosini nazarda tutgan holda, Alloh taoloning O‘ziga murojaat qilgan, ya‘ni duo ma‘nosidagi jumla tuzgan.

Murassa‘ - vazn va qofiyada misraning hammasi yoki uning ko‘p qismi mos kelishidir.

Mutavoziy – bayt misralarining hammasi yoki biron qismi bir-biriga mos kelmasligi yasaladi. Bu uch ish bilan amalga oshiriladi:

1. Vazn va qofiyada to‘g‘ri kelmasligi bilan;
2. Qofiyada to‘g‘ri kelmasligi bilan;
3. Vaznda to‘g‘ri kelmasligi bilan yasaladi. Ularning har biriga misollar mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradi:

Birinchisiga misol:

قوله تعالى: فيها سرر مرفوعة، و أكواب موضوعة (الغاشية، 13-14)

U joyda baland so‘rilar, qo‘yilgan qadahlar...

Bir-biriga yaqin so‘zlar – “سرر مرفوعة” va “أكواب موضوعة” bo‘lib, “فيها” lafzining muqobili bo‘lmagani uchun unga e‘tibor berilmaydi. Demak, “سرر” lafzi avvalgi jumlaning bir bo‘lagi bo‘lib, uning muqobilida keyingi jumlada “أكواب” lafzi kelgan.

Ular talaffuz, vazn va qofiyada bir-biriga mos kelmagandirlar. Ikkinchisiga misol:

حصل الناطق و الصامت و هلك الحاسد و الشامت

Tarjimasi: (Maqsadlarini ochiq) aytguvchi va (sirlarni saqlab) jim turuvchi zot(ning maqsadlari) hosil bo‘ldi, hasadgo‘y va ichiqora odam halok bo‘ldi.

Birinchi jumladagi “حصل” bilan ikkinchi jumladagi “هلك” lafzlarining vazni bir xildir. Lekin qofiyalari mos emasdir. Keyingi lafzlarda ham ahvol shunday. Uchinchisiga misol:

قوله تعالى: والمرسلات عرفا * فالعاصفات عصفا * (المرسلات، 1-2)

Qasamyod etaman, paydar-pay esdiriladigan (shamol)lar bilan, quturadigan (bo‘ron)lar bilan...

“المرسلات و العاصفات” lafzlari vaznda bir-biriga mos emas. Lekin qofiyalari mos keldi.

Sajning chiroylirog‘i bo‘laklari kalima sanog‘ida barobar bo‘lganidir. Bunga “Navobig‘u-l-kalim” asaridan misol:

الكتاب الكتاب ، وإن أردت العتاب : 9، NK
فإن العتاب مسافهة ، متى كانت مشافهة

Tarjimasi: Agar birovni ayblab itob qilmoqchi bo‘lsang, zinhor yozma tariqada (qog‘oz, xat bilan) qil, chunki birov-birovga qarshi bo‘lib, ayblash kam aqllilar va telbalar ishidir, shuningdek bu holda ko‘ngilni siyoh qilishga sabab bo‘lguvchi so‘zlar hisobsiz aytilishi muqarrar, ammo xat yozilganda esa, emin-erkin o‘ylab, fikr-mulohaza bilan yoziladi.

Har bir bo‘lak ikki kalimadan iborat bo‘lib, o‘zaro tengdirlar. Ikkinchi martabada turadigan saj – ikkinchi va uchinchi bo‘laklar avvalgisiga qaraganda uzunroq bo‘lganidir.

قوله تعالى: والنجم إذا هوى * ما ضل صاحبكم و ما غوى * (النجم، 1-2)

Tarjimasi: Botib ketayotgan yulduz bilan qasamyod etamanki, sizlarning sohibingiz (Muhammad) zalolatga ketgani ham yo‘q, yo‘ldan ozgani ham yo‘q!

Bu misolda ikki bo‘lak keltirildi va ikkinchi bo‘lak birinchisiga qaraganda uzunroqdir. Yana bir misol:

“قوله تعالى: خذوه فغلوه * ثم الجحيم صلوه * (الحاقة، 30-31)

Tarjimasi: (Ey, jahannam qo‘riqchilari!) Uni ushlab kishanlangiz! So‘ngra uni olovda kuydiringiz!

Uchinchi bo‘lak qolganlaridan uzunroq ekani bilinib turibdi.

Sajni keyingi bo‘laklari qisqaroq kelishi uni chiroyli qilmaydi. Zero, bu holatda inson bunday she‘riy vazndan zavq olmaydi. Qulog‘iga ham bu g‘alati eshitiladi.

Izdivoj (ar. ازدواج) – juftlash ma‘nosida bo‘lib, bir-biriga yaqin bo‘lgan lafzlarni

jinsdosh holda keltirishdir⁴.

... قوله تعالى: من سبأ بنبأ يقين (النمل، 22)

Tarjimasi: *Saba' (shahri)dan ishonchli xabar...*

من جد وجد و من لج ولج

Tarjimasi:

Kim jiddiylik bilan tirishib harakat qilsa, topadi. Eshikni taqillatishda qat'iy tursa, u ochiladi.

Lafziy tahsinotning ushbu turini “Badoyi’u-s-sanoyi” asarida “tazmini muzdavaj” deb keltirganlar. Bayt va sajda mo‘tabar jihatlarni rioya qilgan holda ikki va undan ortiq lafzni yonma-yon yoki bir-biriga yaqin qilib keltiriladi. Ular esa tegishli harakat va harflarining e’tibori bilan qofiyada bir xil bo‘ladilar.

O‘ziga shart bo‘lmaganni shart tutish (ar. لزوم ما لا يلزم). Yozuvchi yoki shoir qofiya keltirishdan oldin kelishi lozim bo‘lmagan biron gapni, uning bo‘lagini, she’rda harf yoki harakatni keltiradi⁵. Uni keltirmasa, go‘yo she’r yoki nasr kamol topmagandek bo‘ladi.

العلم جبلٌ صعب المصعد ولكنه سهل المنحدر: 9, NK

Tarjimasi: Ilm tog‘dir, ko‘tarilish qiyindir, lekin nishablik (qiyalik) osondir.

Bu gapda ilm olishning mashaqqatini toqqa chiqish mashaqqatiga o‘xshatilmoqda. Mazkur gapda tashbihning eng yuqori darajasi qo‘llangan chunki kabi vositalar ishlatilmagan. Bundan tashqari tazod (muqobala) ham qo‘llangan (mis’ad-ko‘tarilish va munhadar-nishablik). Bilamizki sodda gapda ega aniq holatda (ma’rifa المعرفة), kesim noaniq holatda (nakira النكرة) bo‘ladi, tahlil qilayotgan jumlamizda esa bularning o‘rni almashinib kelgan.

الفرس لا يبدل له من السوط ، وإن كان بعيد الشوط: 18, NK

Tarjimasi: Ot uchun qamchi (xipchin) lozim, agarda masofa (oraliq) uzoq bo‘lsa.

Bu gapda ham الشوط va السوط ohangdosh so‘zlar - jinos (tajnis) qo‘llangan.

Bu yerda quyidagi yashirin ma’noli gaplarga ishora bo‘lishi mumkin (kinoya):

- 1) Ot uzoq masofaga o‘z holicha yuravermaydi, uni urib, qamchilab turadigan xipchin kerak;
- 2) Yaqiningdagi narsani bemalol nazorat qilishing mumkin, lekin uzoqdagi narsa uchun nazorat vositasiga ehtiyoj sezasan.

مَنْ أُرْسِلَ نَفْسَهُ مَعَ الْهُوَى فَقَدْ هَوَى فِي أْبْعَدِ الْهُوَى NK:

Bu gapda ham yagona so‘z (هوَى) turli ma’nolarda qo‘llangan, ya’ni omonim so‘zlar mahorat ila ishlatilgan.

⁴ Bahouddin Abu Homid Ahmad ibn Ali ibn Abdil Kofiy as-Subkiy. Urusul Afrohi fi sharhi talxisil miftahi. 1-4 juzlar. Bayrut-Livan. Dor al-Kutubil ilmiyya, 2001. -B. 385.

⁵ Abdulmutal So‘iydiy. Bug‘yatul Iydoh li talxis al-miftah fi ulum al-balog‘a. Qohira. Maktabatul adab 2005. -B. 663.

«Lafziy» istilohi san'at hosil qilishda so'zning aynan tovush jihati e'tiborga olingan, «ma'naviy» istilohi san'at hosil qilishda so'zning aynan ma'no jihati e'tiborga olingan san'atlarga qo'llanadi. Lekin lafziy san'atlarni hosil qilishda Sakkokiy ta'kidlaganidek, «lafz ma'noga tobe bo'lishi kerak».

Balog'at ilmining badi' bo'limiga kiruvchi san'atlar ko'p bo'lsa-da, arab balog'atiga bag'ishlangan aksar kitoblarda ularning faqat ko'p qo'llanadigan turlari haqidagina ma'lumot berilgan.

So'nggi davr olimlaridan Homid Avniyning «Al-minhaju-l-vodih» asarida quyidagi lafziy san'atlar keltirilgan: jinos (tajnis), raddu-l-ajz ala-s-sadr, aks, saj', izdivoj.⁶

Ahmad Hoshimiyning «Javohiru-l-balog'a» asarida yuqoridagilardan tashqari tashif, izdivoj, muvozana, tashri', luzum maa laa yalzam, maa laa yastahilu bi-l-in'ikos, muvoraba, i'tilofu-l-lafz(i) ma'a-l-lafz, tasmit, insijom yoki suhula, iktifo', tatriz san'atlari haqida ham ma'lumot bor.

Mumtoz manbalarga kelsak, Sakkokiyning «Miftohu-l-ulum» asariga lafziy san'atlardan tajnis (tajris tomm, noqis tajnis, muzayyal tajnis, muzori' tajnis, lohiq tajnis), ishtiyoq, raddu-l-ajz ila-s-sadr, qalb, saj', tarsi' kiritilgan, «nuqtali-nuqtasiz harflardan ham go'zallik yaratish mumkin» ekani aytilgan, ammo ularning turlari keltirilmagan.

Atoulloh Husayniy lafziy san'atlarga «xat suvratig'a taalluqlug'» san'atlarni ham qo'shgan holda quyidagilarni kiritadi: tarsi', tajnisli tarsi', tajnis (lafz-i tajnis, tajnis-i noqis, tajnis-i muzayyal, tajnis-i muzori', tajnis-i lohiq, tajnis-i aks, tajnis-i muzdavaj, tajnis-i murakkab, g'ayr-i lafziy tajnis), raddu-l-ajz mina-s-sadr, qalb (maqlub-i kull, maqlub-i ba'z, maqlub-i mujannah, maqlub-i mustaviy), saj' (saj'-i mutavoziy, saj'-i mutarraf, saj'-i mutavozin), mumosala, tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks, tardid, taattuf, tashri', zu-l-qofiyatayn, tavshih, talavvun, tarofuq, maqru ba nazmu nasr, maqru-l-lug'atayn, mulamma', muqatta', muvassal, raqto, xayfo, jami'u-l-huruf, hazf, e'not, tazmin-i muzdavaj, mutazalzil, murabba', mu'aqqad, mudavvar, mushajjar, tavsīm, mushokala.

Atoulloh Husayniy «lafz» istilohiga «lafz» so'zining birinchi ma'nosi «og'izdan chiqarib tashlash» va «so'z aytish» bo'lib, uni so'zga nisbatan qo'llaganda so'zning tovush tomoni nazarda tutiladi deb izoh beradi. Demak, lafziy go'zalliklar tovushlar

⁶234-198. ص. دار الكتاب العربي بمصر.. الجزء. المنهاج الواضح للبلاغة. الجزء. دار الكتاب العربي بمصر.. ص. 234-198. (Qarang: Rustamiy Salima. O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent: «Zilol buloq» nashriyoti, 2019 y. 240 b.)

orqali hosil qilinadi⁷.

Balog‘at ilmida «lafziy go‘zalliklar» deb ataladigan lafziy san‘atlarga shunday ta‘rif beriladi: go‘zallik maxsus ravishda lafzga qaratiladi, ma‘noga esa ikkinchi darajada taalluqli bo‘ladi, ma‘no go‘zal lafz orqali ifodalanadi va u mos ravishda ma‘noni ham go‘zallashtiradi.

Bunday ayon bo‘ladiki, kalomga badiiy tus berishda, albatta, so‘zlarning ma‘no jihati e‘tibordan chetda qolmaydi, lekin lafziy san‘atlarda tanlangan so‘zning ma‘nosi ko‘zlangan maqsadga mos bo‘lib, tovush jihati san‘at hosil qilishga halal bersa, tanlangan so‘zning ma‘nodoshlari orasidan tovush jihatdan mos keluvchi shakli tanlanadi. Masalan, quyidagi misolga nazar solinsa:

الأتراب، عن المتربة وأنأتني الاغتراب، غارب اقتعدت لما
اليمن صنعاء إلى الزمن، طوائح بي طوحت

(G‘ariblik tulporiga minganimda va faqirlik do‘stlarimdan uzoqlashtirganda, zamon oqimi meni Yaman Sanasiga olib ketdi)», unda غارب إتراب، متربة إغتراب، غارب طوحت إتراب – so‘zlari lafziy san‘atlardan biri ishtiyoqni hosil qilgan. O‘z navbatida الاغتراب va الاغتراب so‘zlari va الزمن va اليمن so‘zlari tajnis orqali saj’ hosil qilib turibdi. Bu tasodifiy emas, balki ijodkor tomonidan ohangdosh so‘zlar maxsus tanlangan.

Demak, lafziy san‘atlarda so‘zlarning lafzdoshlik xususiyati birinchi o‘ringa chiqadi. Arab balog‘atshunoslari lafzdoshlikdan hosil bo‘lgan bunday san‘atlarga yuqorida ta‘kidlanganidek, saj’, tajnis, ishtiyoq, raddu-l-ajz ila-s-sadr, tarsi’ kabi san‘atlarni kiritadilar, ayrim olimlar iqtibosni ham qo‘shadilar.

⁷ Rustamiy Salima. O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent: «Zilol buloq» nashriyoti, 2019 y. 240 b.